

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Ona tili va adabiyoti ta'limi" kafedrası, f.f.d, dots Marg'uba Abdullayeva taqrizi ostida

To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi
ToshDO'TAU 2- kurs magistranti
+99891 (016-07-96)
tuganovadinara82@gmail.com

JAHON ADABIYOTI NAMUNALARINI O'QITILISH TARIXI

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon adabiyoti namunalarini o'qitilish tarixi va hozirgi kundagi holati tahlil ostiga olingan. qachondan boshlab bu bo'lim o'qitila boshladi, qaysi tamoyillarga ko'ra jahon adabiyoti namoyondalarining asarlari maktab darsliklaridan joy oladi kabi savollarga javob topilgan.

Kalit so'zlar: Jahon adabiyoti, XIX asr, Iogann Volfgang fon Gyote, Frans Kafka, Devid Darmosh, "Til va adabiyot ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Xalq ta'limi", Konseptual tamoyil, Tarixiylik tamoyili.

HISTORY OF TEACHING EXAMPLES OF WORLD LITERATURE

Abstract: In this article, the history and current state of teaching examples of world literature are analyzed. since when this department was taught, according to which principles the works of world literature representatives are included in school textbooks, answers were found.

Keywords: World literature, 19th century, Johann Wolfgang von Goethe, Franz Kafka, David Darmosch, "Education of language and literature", "Continuous education", "Education of the people", Conceptual principle, Principle of historicity.

Bugungi globallashuv davrida jahon adabiyoti kursi milliy, etnik, lingvistik, ijtimoiy-siyosiy masalalarni o'rganish uchun xizmat qilib, matnlarni tanqidiy baholash, asar voqealarini yashab turgan davr bilan bog'lash, yozuvchi tilini o'rganishga imkon beradi. Mustaqillik yillarida yangi bir avlod shakllandi. Yangicha fikrlovchi kadrlarga bo'lgan talab nafaqat o'z milliy adabiyotini, balki chet el namoyondalarining ijodidan ham xabardorlikni talab qiladi. "Jahon adabiyoti" atamasi ilk bor 19-asrning boshlarida paydo bolgan. "Jahon adabiyoti" atamasi Iogann Volfgang fon Gyotega tegishli bo'lib, u o'z vatanidan tashqarida auditoriyani topishga muvaffaq bolgan Frans Kafka kabi yozuvchilarni kuzatganida "West literature" atamasini kiritgan. "Jahon adabiyoti" tushunchasi keyinchalik barcha milliy va mintaqaviy adabiyotlarni bir-biriga bo'g'laydigan atamaga aylandi. O'tmishda bu atama birinchi navbatda G'arbiy Yevropa adabiyoti durdonalariga tegishli edi, ammo bugungi kunda jahon adabiyoti xalqaro doirada ko'proq ko'riladi. Endilikda kitobxonlar hech qanday qiyinchiliksiz turli tarjimalarda keng ko'lamli global asarlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, asarni jahon adabiyoti deb hisoblaydigan narsa uning kelib chiqqan mamlakatdan tashqarida tarjima qilib o'qilishidir. Masalan, Devid Darmosh jahon adabiyotiga ikki tomonlama jarayon orqali kiradi: birinchisi, adabiyot sifatida o'qilishi, ikkinchidan, o'zining til va madaniy kelib chiqish nuqtasidan tashqarida kengroq dunyoga tarqalishi bilan. Adabiyot o'qitish tarixi va bugunini taqqoslasak, zamonaviy darsliklarda adabiyot fani uchun darslik, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi kabi o'quv- metodik yig'malar paydo bo'ldi va uzluksiz yangilanib bormoqda. QR-kodlar orqali o'quvchilar mobil qurilmalari yordamida matn va topshiriqlarning audiosini tinglab tushunish va asar asosida yaratilgan kinofilm va telespektakllarni ham kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Jahon adabiyoti namunalarini o'qitish va o'rganish naqadar muhim vazifa ekanligini nemis yozuvchisi Herman Hesse ham o'rinli ta'kidlab o'tgan. Uning fikriga ko'ra: "Ta'limning maqsadi ayrim qobiliyatlar va samaralarni rivojlantirish emas, balki hayotimizga ma'no baxsh etishga ko'maklashishdir, o'tmishni idrok etishu kelajakni qarshi olishga mardona tayyorlanishga yordam

berishdir. Ana shu ta'limga olib boradiganlar ichida eng muhimi- jahon adabiyotini o'rganishdir, ko'pgina xalqlarning yozuvchilari va mutafakkirlari asarlari ichida bizga o'tmishdan tuhfa bo'lib qolgan fikrlar, hikmatlar, tajriba, ramzlar, hayollar va a'mollarning hududsiz xazinasini izchillik bilan bobma-bob o'zlashtirishdir...Lekin birinchi darajali o'zligini namoyon etishdir.[Herman Hesse. Jahon adabiyoti kutubxonasi // Kutubxona.uz. T- 2013. 8-bet] Adabiyot predmetining asosiy vazifalaridan biri estetik zavq, tarbiya, bunyodkor g'oyalarni shakllantirish va o'z "men"ini anglashdan iboratdir. Hozirgi globallashuv jarayonida, har bir xonadonga internet kirib kelishi uning tez sur'atda yoyilishi bir qator ijobiy holatlar bilan birgalikda salbiy ko'rinishlari ham ko'zga ko'rinmoqda. Bunday holatlarda yoshlarda bunday illatlarga qarshi immunitet faqat bilim orqali, mustahkam manaviyat orqali amalga oshiriladi. Jahon adabiyoti durdona asarlari bilan tanishish o'quvchilarda o'zga millat vakillari bilan tanishish, o'zgacha madaniyat va urf-odatlar bilan o'rtoqlashish imkoniyatini beradi. Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "Bugun biz yashayotgan internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san'at, madaniyatimizning o'rni va ta'sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin, degan to'g'ri va odilona savollar barchamizni, birinchi navbatda, xalqimizning eng ilg'or vakillari bo'lgan ijod ahlini o'ylantirish zarur..." [Mirziyoyev Sh.M Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / Xalq so'zi. 2017. 4avg] Shu jihatdan o'z milliy adabiyotimiz bilan birgalikda jahon adabiyotining eng sara namunalarini mutolaa qilish, tahlil qila oladigan o'quvchilarni, kitobxonlarni, xorijiy asarlarni tarjima qiladigan tarjimonlar va yuksak ma'naviyat va bilimga ega bo'lgan murabbiylarni yetishtirish zamon talabidir. Jahon adabiyotini o'qitishda o'quvchilarda dunyo xalqlarining hayot tarzi, ijtimoiy- madaniy muhiti, yozuvchi shaxsi va ularning asarlaridagi inson ruhiyatini yoritishi, Sharq va G'arb adabiyotining o'xshash va farqli tomonlarini, an'alarini o'rganishda muhim bosqich sanaladi. Hozirgi kunda yangilanayotgan maktab darsliklari va o'qituvchilar uchun yaratilgan metodik qo'llanmalar milliy adabiyotimiz bilan bir qatorda jahon adabiyoti bo'limiga ham yetarlicha e'tibor qaratilayotganidan darak beradi. Eski adabiyot darsliklaridan farqli o'laroq, bugungi kundagi kitoblarda jahon adabiyoti namunalari soni ham ko'payib bormoqda. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyoti namunalarining o'rganilish darajasini yanada oshirishda "Til va adabiyot ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Xalq ta'limi" kabi ilmiy – metodik jurnallardan joy olgan maqolalar ham xizmat qilmoqda. Maktab o'quvchilari nima sababdan milliy adabiyotimiz bilan cheklanib qolmaydi, boshqa millat vakillari asarlarini o'rganishga ehtyoj bormi degan savollar tug'ilishi tabiiy hol. E.Abduvalitovning ta'kidlashicha, "Biror millatni chuqurroq bilmoqchi, uni qaysidir jihatdan o'rganmoqchi bo'lgan odam uchun o'sha millatning adabiyotini o'rganishdan yaxshiroq va ishonchliroq yo'l yo'q. Bir geografik makonda, bir tarixiy zamonda yashayotgan turli millat vakillari bir-birlarini bilganlaridagina o'zaro ishonch va do'stlik rishtalari mustahkam bog'lanishi va bir- birlariga mehr qo'yishlari mumkin. Bu jarayonning samarali bo'lishida adabiyot hal qiluvchi o'rin tutadi". [Abduvalitov E.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganish. Ped.fan.dok T, 2020. 252-bet] Adabiy ta'limda jahon adabiyotiga oid asarlarni o'rganish va maktab darsliklariga kiritish avvaldan o'rta qo'yilgan masala hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida jahon adabiyoti namunalarini o'qitish boshlang'ich sinflardan boshlab joy olgan bo'lib, keyinchalik sinflar kesimida bir necha yo'nalishlarda o'rganilgan. Kichik sinflarda turli xil kichik-kichik folklor namunalari, ertaklar, she'rlar va yuqori sinfga o'tganlarida esa romanlar bilan tanishishga imkon yaratiladi. Amaldagi jahon adabiyoti namunalarini o'qitish masalasi umumiy o'rta ta'lim tizimida quyidagicha hal qilingan:

1. **Konseptual tamoyil.** Bu tamoyil umumta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash maqsadini ko'zda tutadi. Dasturda muayyan bir yozuvchi ijodi asarning g'oyaviy xususiyati, muallifning tasvir uslubi, obrazlar tizimi, janri va kompozitsiyasi asta-sekin murakkablashtirilgan tarzda berilishiga e'tibor qaratilgan. Bu jihat o'quvchilarda muayyan adib ijodiga xos xususiyatlar yuzasidan aniq va boy tasavvurlar uyg'otishga xizmat qiladi. Bu tamoyil orqali soddadan murakkabga tamoyili ko'rish mumkin.

2. **O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari e'tiborga olinishi.** Darsliklardan o'rin olgan asarlarni saralashda birinchi navbatda yosh xususiyatini va bola psixologiyasini bilish talab etiladi. Katta romanlarni kichik sinflarda berilishi asarni "hazm" qilish jarayoniga halaqit beradi. Bu esa bolani adabiyotdan uzoqlashishga sabab bo'ladi.
3. **Muallif konsepsiyasi, janr va mavzu takomili.** Amaldagi o'quv dasturi ijodkorlar tarkibining yangilanishi bilan o'qituvchi va o'quvchilar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Zero, yangi nomlarning o'ziga xos ijodiy konsepsiyasi va yangicha talqin o'qitishda noan'anaviy yondashuv masalasini ham ilgari suradi. [Abduvalitov Nurjan Buranovich. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish. T-202. 19-bet] (1.1 jadvalga qarang)

Umumiy o'rta ta'limning 5-11- sinflari "Adabiyot" o'quv dasturida jahon adabiyoti namunalarining berilish tarixi (2014-2022- yillar kesimida)

Mualliflar	Mavzular	Mualliflar	Mavzular
5-sinf (2015-2020)			
Hikmt durdonalari			
Ezop	Masallar	Ezop	Masallar
Ertaklar olamida			
Jonatan Swift	"Gulliverning sayohati"	Aka-uka Grimlar	"Botir tikuvchi"
Hans Kristian Andersen	"Bulbul"		
Bolalikning beg'ubor olami			
Antuan de Sent-Ekzyuperi	"Kichkina shahzoda"		
Ma'naviyat bo'stoni			
Sa'diy Sheroziy	"Guliston", "Bo'ston"	Sa'diy Sheroziy	"Guliston", "Bo'ston"
Vatanni sevmoq imondandir			
Nodar Dumbadze	"Hellados"	Nodar Dumbadze	"Hellados"
6-sinf (2017-2022)			
Bola- uchqur hayol egasi		Har bir kun saboq	
Turob To'la	"Do'nan"	Odil Yoqubov	"Yaxshilik"
Janni Radari	"Xurushni eplolmagan kuchukcha"	Abay	"Yaxshilikdan bilim izlab"
Muso Jalil	"Ishonma" she'ri	Lengston Hyuz	"Raxmat sizga, xonim"
Abay	Hikmatlar		
Ibroyim Yusupov	"Qadrdon so'qmoqlar"		
Pirimqul Qodirov	"Yulduzli tunlar"		
Fantastika va sarguzasht olami			
		Rey Bredberi	"Bir kunlik yoz"
		Jyul Vern	"O'n besh yoshli kapitan"
		Artur Konan Doyl	"Mallalar uyushmasi"
Rangin tuyg'ular			
		Ibroyim Yusupov	"Qadrdon so'qmoqlar"
		Oskar Uayld	"Baxtli shahzoda"
7-sinf (2017-2022)			
Ko'zim qarog'idasan, Vatan!		Inson, tabiat, o'zlik	
Rasul Hamzatov	She'rlar	Ernest Seton-Tompson	"Lobo"

		Ernest Heminguey	“Chol va dengiz”
O’ylarimning chesksiz osmini		Ko’zim qarog’idasan,Otayurt!	
Chingiz Aytmatov	“Oq kema”	Sergey Yesenin	“Shahinam,o, mening Shahinam..”
		Rasul Hamzatov	“Qushqanotli, hoy karvon...”
Yangi davr nafasi		O’tmishdan sadolar	
Ernest Seton- Tompson	“Yovvoyi yo’rg’a”	Primqul Qodirov	“Yulduzli tunlar”
Turfa qiyofalar			
		Anton Chexov	“Xameleon”
8-sinf (2014-2019)			
Lutfiy	G’zallar	Lutfiy	G’zallar
Maqsud Shayxzoda	“Mirzo Ulug’bek”	Maqsud Shayxzoda	Jaloliddin Manguberdi
Muhammad Fuzuliy	G’azallar	Muhammad Fuzuliy	G’azallar
Robindranath Tagor	“Nur va soyalar”	Robindranath Tagor	“Shubha”
Sergey Yesenin	She’rlar	Sergey Yesenin	She’rlar
9-sinf (2014-2019)			
Jahon adabiyoti		Jahon adabiyoti	
Vilyam Shekspir	“Otello”	Vilyam Shekspir	“Hamlet”
Haynrix Heyne	She’rlar	Chingiz Aytmatov	“Asrga tatigulik kun”
Aleksandr Pushkin	“Yevgeniy Onegin”	O’ljas Sulaymon	“Arg’umon” “Mambet botiring qatl oldidan aytganlari” “Tungi taqqoslar”
Chingiz Aytmatov	“Asrga tatigulik kun”		
10-sinf (2017-2022)			
Jahon adabiyoti		Xalq og’zaki ijodi va qadimgi dunyo adabiyoti	
Jek London	Hayotga muhabbat	Homer	“Iliada va Odisseya”
Alfons Dode	“So’nggi saboq”		
O’rta asr adabiyoti V-XVI asrlar			
		Migel de Servantes Saavedora	“Don Kixot sarguzashtlari”
XVII-XIX asrlar adabiyoti			
		Aleksandr Pushkin	“Yevgeniy Onegin”
XX asr adabiyoti			
		Erix Mariya Remark	“G’arbiy frontda o’zgarish yo’q”
11-sinf (2018)			
Anton Pavlovich Chexov	“Garov”	Anton Pavlovich Chexov	“Garov”

Professor Q.Yo'ldoshev adabiy ta'limdagi tanlangan asarlar bo'yicha o'z fikrlarini bildirar ekan, shunday xulosaga keladi: “ O'quvchi muayyan miqdordagi fan haqiqatlarini o'zlashtirib oladigan obyekt emas, odam- u olamda ro'y beradigan har qanday voqea- hodisa va holatga o'z nuqtayi nazari bilan sog'lom munosabatda bo'la oladigan shaxs sifatida shakllantirilishi kerak. Maktab adabiyoti uchun adib yoki asarning mavqeyi yoki mashhurligi emas, balki o'quvchi ma'naviyatida shakllantirilishi lozim bo'lgan ezgu axloqiy sifatni yuzaga keltirishga xizmat qilish darajasi muhim” .Tanlanayotgan jahon adabiyoti asarlarini 2014-2022-yillar oralig'ida tahliliga tortsak, bu bo'limga e'tibor yanada ortganiga guboh bo'lamiz. Janriy rang- baranglikka erishilganligi, o'quvchilar yoshiga munosib asarlarning sinflar kesimida o'zgartirilganligi, sodda savol- javoblardan voz kechib, o'quvchilarga estetik zavq beruvchi, fanga bo'lgan muhabbatini oshiruvchi loyihalar kiritilganligi yillar davomida jahon adabiyoti bo'limida uchramagan yangilikdir. Yangilangan 6-7-10- sinf darsliklari o'qitilishi o'quvchi va ustozlar yelkasiga birmuncha mas'uliyat yuklaydi. Tarkibi qaytadan tuzilgan adiblar, ularning asarlari, zamonaviy topshiriqlar darslarning ham isloh qilinishini talab qiladi. Eski darsliklardan farqli o'laroq, bugungi kundagi jahon adabiyoti bo'limida mavzu ko'lamining rang-barangligiga guvoh bo'lamiz. 2015-yilda nashr qilingan 1-qism adabiyot darsligidagi ba'zi savollarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ular o'quvchilarni bilimni oshirish uchun, mustaqil fikrini o'stirish uchun emas, balki shunchaki bolani chalg'ituvchi savollar sirasiga kiritish mumkin. Misol uchun, adabiyot kishining didi, axloqi, bilimlari boyishiga kuchli ta'sir ko'rsatishini biror asar misolida isbotlashga urining. Ko'chalar, metro bekatlari, teatrlar, shahar va qishloqlar, turli davlat mukofotlarining ko'pchiligi shoirlar, yozuvchilar nomiga qo'yilishining sababi nimada? Dunyo adabiyotida birinchi masallarni yaratgan ijodkorlar kim? Kimlar masalchilik rivojiga hissa qo'shgan? kabi xotiraga asoslangan savollar bolalarda adabiyotni yodlab o'ranish kerak ekan degan xulosaga kelishga sabab bo'ladi. Adabiyot yodlab o'rganilmaydi, uni his qilish, o'qigan har qanday janrdagi asarida yashashi kerak. Darslikdagi savol va topshiriqlar quyidagi mazmunda tuzilsa, o'quvchilarning fikr- mulohazasi keng, adib hayoti va asarini chuqurroq mustahkamlashga yordam beradi:

- Boshqa fanlar bilan integratsiya asosida tuzilgan savollar. Adabiyot predmetini tarix, tasviriy san'at, geografiya fanlari bilan bog'liqlikda o'rganish darsning yangicha metodi deyish mumkin. Jahon adabiyotiga doir asar o'rganilayotganda, albatta, xonada dunyo xaritasi bo'lishi, davlatlarni o'qtuvchi boshchiligida topishi asar o'rganishdagi muhim bosqichdir. Bu tamoyilda ustozlardan ham qo'shimcha bilim va qunt talab qiladi.
- Mustaqil fikrlashga undovchi, xulosa berishga o'rgatuvchi savollar.
- Ta'lim oluvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiruvchi savollar. Bu turdagi savollar va topshiriqlar yangi tarkibdagi darsliklarda ko'rish mumkin.
- Savollar yakka tartibda emas, guruhda ishlovchi yoki juft-juft bo'lib ishlovchi savollardan tarkib topishi. Aynan bu talab ham yangi darsliklarda ko'rishimiz mumkin.
- Topshiriqlar o'quvchi yoshiga munosib ravishda yuqori sinflar uchun asarlarni taqqoslash tamoyili asosida tuzilishi. Misol uchun 10-sinf o'quvchilari uchun darslikdagi Remarkning “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” romanida berilgan topshiriqqa nazar tashlaymiz: Urushning ayanchli oqibatlarini tasvirlangan qanday o'zbek adabiyoti namunalari o'qigansiz? Shunday asarlardan birini tanlab, G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” romani bilan solishtiring. Muallifning mavzuga yondashuvida qanday farqlarni kuzatdingiz? Bu farqlarning sabablari nimada bo'lishi mumkin?

Savol –topshiriqlar talabga javob berishi uchun tanlangan asarlarni ham e'tiborga olish maqsadga muvofiq. B.Aliyevaning dissertatsiyasida ilgari surilgan materialni tanlashning quyidagi tamoyillari alohida e'tiborga loyiq:

1. Tarixiylik tamoyili.

2. Milliy va umuminsoniy birlik tamoyili.
3. Ilmiylik va yosh xususiyatlariga mos kelish tamoyili.
4. Klassik asarlarning g'oyaviy mazmuniga zamonaviy yondashish tamoyili.
5. Ichki va tashqi predmetlararo bog'lanish tamoyil.

Adabiyot deb atalmish bu fanning so'z san'atidagi o'rni qanchalik yuqori pog'onada ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan tamoyillarning barchasi inson uchun, uning rivojlanishi uchun xizmat qilmog'i kerak. Taniqli adib Nazar Eshonqul ta'riflaganidek, "Adabiyotning bosh vazifasi haqidagi bahslar hamma davrlarda ham bo'lgan. Sho'ro davri adabiyotning vazifasi o'rgatish, namuna bo'lish, "tarbiya vositasi" deb bilgan bo'lsa, bu sho'rolar kashf etgan yoki adabiyotga kommunistlar yuklagan vazifa emas. Buni adabiyotning ilk asarini yozganlar kashf etgan, shuning uchun adabiyotni adib o'rgatish deb hisoblaganlar...Adabiyot baribir bevosita ham, bilvosita ham insonni "tarbiyalaydi". Uning didini, dunyoqarashini, saviyasini, insonga, millatga, dunyoga, ezgulik va yovuzlikka munosabatini tarbiyalaydi". Faqat adabiyotgina har qanday inson uchun o'zini o'zi tanish yo'lidagi, kashf etishdagi birinchi yo'ldir. Adabiy asarlar diqqat markazida doimo inson obrazi yetakchilik qilgani bois, adabiyot inson yuragiga yetib boradi, o'zidagi nuqsonlarni to'g'irlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://Isupress.org>
2. Herman Hesse. Jahon adabiyoti kutubxonasi // Kutubxona.uz. T- 2013. 8-bet
3. Abduvalitov E.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganish. Ped.fan.dok T, 2020. 252-bet
4. Qozoqboy Yo'ldoshev. Zamonaviy filologik ta'limning yetakchi tamoyillari // "Global ta'lim va miliy metodika taraqqiyoti" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, ToshDO'TAU, 2020. – B. 5-, 7.;Yo'ldosh Q. Global dunyoda adabiy ta'lim vazifasi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2023. – № 1. – B.3-5.
5. 10-sinf adabiyot. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov T-2022, 308-bet
6. Nazar Eshonqul. "Men" dan "men" gacha: adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Akademnashr, 2014.- 56-57- betlar